ishlatish, o‘quvchilarni matnni yuzaki ma’nodan chuqurroq tushunishga undashni maqsad qiladi, shunda ular yozuvning xarakterli jihatlarini anglab yetishlari mumkin. Simvollarni ishlatishda biz universal simvollar, kontekstual simvollar yoki tasvirlar va eng muhimi, allegorik motivlarning ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, intertextuallik kategoriyalaridan biri bo‘lmish alluziya o‘xshashlikni tashkil etadi, ya’ni bir matn boshqa bir matnga bevosita yoki bilvosita ishora qilish orqali o‘z ma’nosini chuqurlashtiradi. Alluziya adabiy asarlarda, shuningdek, turli madaniy, tarixiy yoki diniy referensiyalar orqali o‘quvchilarga tanish bo‘lgan kontentni kiritish orqali yangi ma’no qatlamlarini yaratadi. Bu, matnlar o‘rtasidagi bog‘lanish va ularning o‘zaro ta’siri orqali adabiy va madaniy muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Suningdek matnda iqtibos keltirish – bu matndan to‘g‘ridan to‘g‘ri parcha keltirish, bu, o‘z navbatida, asarga kuchirmachilikni oldini olish va uni yanada jozibador qilish imkonini beradi. Iqtibos keltirish asarni yanada realistik qilishga yordam beradi, chunki bu orqali boshqa fikrlar yoki avvalgi asarlarga havola qilinadi, bu esa o‘quvchilarga yanada chuqurroq tushuncha beradi. Shuningdek, iqtiboslar matnni boyitadi, unga muayyan kontekst yoki o‘zgacha ma’no qo‘shadi. Bu metod, ayniqsa, adabiy tahlil yoki muhokama qilishda, matnning maqsadiga erishishda foydali bo‘lishi mumkin.

Ramzlar haqiqatdan ham asrlardan buyon insoniyatni o‘ziga jalb qilib kelgan. Ular nafaqat asarlarda sir va sinovlarni yechishda yordam beradi, balki o‘quvchini chuqurroq fikr yuritishga undaydi. Ramzlar biror tushuncha yoki mavzuni tasvirlashda vosita bo‘lib, o‘quvchiga qo‘shimcha ma’no yoki xayoliy qatlamlar ochishga yordam beradi. Ular, ko‘pincha, an’anaviy, madaniy yoki hissiy tasavvurlarga asoslangan bo‘lib, o‘quvchini matnning har bir qatlamini yanada kengroq va boyroq tushunishga undaydi. Shunday qilib, ramzlar adabiyotda muhim vosita sifatida, nafaqat tushuncha berishda, balki o‘quvchi bilan chuqur muloqot o‘rnatishda ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Abrams M.H. “A Glossary of Literary Terms”. 7th edition. Cornell University, p. 314.

[2]. Clayton John B. (1991). Influence and Intertextuality in Literary History. Univ of Wisconsin Press. ISBN 9780299130343

[3]. Dilso‘z R. Xoshimova. “Alluziya va intertekstuallik lingvistik tushunchalarining o‘zaro bog‘lanishi”. Academic research in educational sciences, volume 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021:5.

[4]. Irwin, William (2001). “What Is an Allusion?” The Journal of Aesthetics and Art Criticism, 59 (3), p. 287–297

[5]. Irwin William. “Against intertextuality. Philosophy and Literature”. 2, October, 2004 pp. 227–242.

[6]. F.M.Khajiyeva. “Theoretical aspects of the language learned” manual, Bukhara, 2023, pp. 105–111.

[7]. R.F.Thomas. “Virgil’s Georgics and the art of reference” Harvard Studies in Classical Philology 90 (1986) pp. 171–98.

[8]. Share Perry. (January, 2005). Managing intertextuality–meaning, plagiarism and power. Research Gate.

Mustafayev Shaxboz Baxtiyorovich (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi, o‘qituvchisi; yagonapochta@gmail.com)

KARNAVALIZATSIYA VIRTUALLIKNING SHAKLI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada virtual kommunikatsiya fenomeni teatr va o‘rta asrlar karnavallari bilan qiyoslangan holda tahlil qilingan. Muallif virtual konferensiyalarni muloqotning yangi shakli sifatida ko‘rib, unda foydalanuvchilar niqob ostida anonimlikni saqlagan holda, o‘z fikrlarini erkin bildirishlarini ta’kidlaydi. Karnavalizatsiya nazariyasiga tayangan holda, virtual muloqotdagi suhbatlar, trolling va lingvistik o‘zgarishlar karnavallik madaniyatining ifodasi sifatida talqin qilingan. Virtual muloqotning dialoglilik, ijodkorlik va konfliktga moyilligi xususiyatlariga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *virtual muloqot, karnavalizatsiya, niqob, trolling, lingvistik xususiyatlar, anonimlik, muloqot madaniyati.*

Мустафаев Шахбоз Бахтиярович (Узбекский государственный университет мировых языков, независимый исследователь, преподаватель; yagonapochta@gmail.com)

КАРНАВАЛИЗАЦИЯ – КАК ФОРМА ВИРТУАЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье рассмотрен феномен виртуальной коммуникации через призму театрального искусства и средневековых карнавалов. Автор анализирует виртуальные конференции как новую форму общения, где пользователи под масками сохраняют анонимность и свободно выражают свои мысли. Опираясь на теорию карнавальности, обсуждаются особенности диалогов,*

троллинга и лингвистических изменений в виртуальном пространстве как проявления карнавальной культуры. Особое внимание уделяется диалогичности, креативности и конфликтному потенциалу виртуального общения.

Ключевые слова: *виртуальная коммуникация, карнавальность, маска, троллинг, лингвистические особенности, анонимность, культура общения.*

Mustafayev Shakhboz Bakhtiyorovich (Uzbek State University of World Languages Independent researcher, teacher; yagonapochta@gmail.com)

CARNIVALIZATION – AS A FORM OF VIRTUALITY

Annotation. *The article explores the phenomenon of virtual communication through the lens of theatrical performances and medieval carnivals. The author examines virtual conferences as a novel form of interaction where users, under the guise of anonymity, freely express their opinions. Drawing on the theory of carnivalization, the study discusses the peculiarities of dialogues, trolling, and linguistic transformations in virtual spaces as manifestations of carnival culture. Emphasis is placed on the dialogic nature, creativity, and conflict potential of virtual interactions.*

Keywords: *virtual communication, carnivalization, mask, trolling, linguistic features, anonymity, communication culture.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalarning rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta'sir koʻrsatmoqda. Xususan, insonning muloqot qilish, oʻzini ifoda etish va madaniy merosni anglash shakllari ham tubdan oʻzgarib bormoqda. Shu jarayonda "virtual karnavalizatsiya" tushunchasi alohida e'tiborga sazovor. Bu hodisa virtual olamda inson tajribasining madaniy, estetik va ijtimoiy jihatlarini tadqiq qilishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Virtual karnavalizatsiya an'anaviy karnaval madaniyatining zamonaviy texnologiyalar bilan uygʻunlashuvi natijasida yuzaga kelgan yangi shakldir. U oʻzida erkinlik, oʻyin va ramzlarning oʻzaro aralashuvi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayon virtual makonda insonlar oʻrtasida ijtimoiy chegaralarni yengib oʻtish, yangi kommunikatsion muhit yaratish va individual hamda kollektiv tajribalarni boyitish imkoniyatini beradi.

Virtual konferensiyani spektaklga qiyoslasak boʻladi. U yerda virtual kommunikantlar oʻzlariga niqob taqib, oʻzi tanlagan obrazini gavdalantirishga, oʻziga hamfikrlar topishga intiladi. Virtual kommunikativ muhit – bu shunday makonki, u yerda bir vaqtning oʻzida ham oʻyin-kulgi, ham gʻazab-nafrat, ulugʻlash-yer bilan bir qilish kabi hodisalar mujassam. Bu goʻyo karnavalga oʻxshaydi.

Oʻrta asrlar Yevropasidagi har yil oʻtkaziladigan (hozir Venetsiya shahrida yilda bir bor oʻtkaziladi) karnavallarda xalq oʻz yuziga turli xil niqob taqib bir muddat boʻlsa ham, oʻzining kimligini unutgan va oʻzi tanlagan niqob obraziga kirgan. Bu bayram oddiq qora xalq vakillarining zodagon qatlam vakillariga yaqinlashish imkonini bergan. Shu bilan ular oʻz fikrlarini bir-birlari bilan boʻlishishgan, bunda har bir shaxs anonimligicha qolgan. Hozirgi virtual muloqotlarda xuddi shu karnavallik muhiti hukmron.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Karnavalizatsiya – adabiyotshunoslikka rus olimi Mixail Baxtin tomonidan kiritilgan va oʻrta asrlar karnavali an'analarining hozirgi zamon madaniyati va fikrlashiga koʻrsatayotgan ta'siri natijasini izohlaydigan tushunchadir. Avvaliga falsafa, nazm, semiotika kabi fanlar doirasida oʻrganilgan ushbu atama hozirda filologiya fanlari doirasida ham tadqiq qilinmoqda.

Karnaval – bu qoʻrquvdan xalos boʻlish, dunyoni insonga va insonni insonga yaqinlashtiruvchi his. M.Baxtinga koʻra, karnaval "inson tafakkurini haqiqiy va mustaqil qiluvchi" idrok [1]. Karnavalizatsiya atamasini Baxtin shunday tushuntiradi: Odamlar karnaval maydoniga chiqishganida, ular barcha dunyoviy narsalar va din madaniyatining barcha asosiy qarama-qarshiliklari bilan xayrlashadi va barcha kundalik maishiy qadriyatlar oʻz joylarini oʻzgartiradi. Tilanchi yoki nodon karnaval Qiroli boʻladi. Unga qirollik sharaflari beriladi. Karnaval ruhoniysi ham tayinlanadi va barcha diniy qadriyatlar tahqirlanadi. Yuqori qism pastki bilan, boshi orqa bilan va jinsiy a'zolar yuzlar bilan almashtiriladi. Erkaklar va ayollar joylarini oʻzgartiradilar. Erkaklar ayollar niqoblarini kiyadilar va aksincha. Chiroyli va muloyim soʻzlar oʻrniga, haqorat soʻzlari eshitiladi. Hayot va oʻlimning qarama-qarshiliklari joylarni oʻzgartiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Virtual karnaval tushunchasi ostida biz virtual kommunikantlarning nutqiy niqoblarining oʻzaro munosabatini tushunamiz. Virtual jamiyat virtual kommunikant uchun bir-biri bilan oʻzaro aloqaga kirishadigan turfa xil niqoblar bilan toʻla bir muhitdek tuyuladi. Yangi kompyuter texnologiyalar shunday imkoniyatlar yaratganki, bunda har bir foydalanuvchi oʻz ruhiy oʻziga xosliklarini alohida akkauntlar yordamida koʻrsatishi mumkin. Ya'ni, bir foydalanuvchi bir konferensiya doirasida cheklanmagan akkauntlarga ega boʻlishi va shu akkauntlar yordamida oʻzining alohida ruhiy to-

monlarini koʻrsatishi mumkin. Har bir akkaunt bu yerda alohida rolni ijro etadi. Inson ortida voqelikni qoldirgan holda, oʻzi istagan shaxs boʻlib paydo boʻladi.

Gazia Bordo: "A Roma c'era una miscela. E qualcosa è iniziato con questo. Ma qualcosa è finito lì. E speri di no, non è finita qui. Che all'inizio la pietra è stata scolpita e la corteccia di betulla è stata falciata, poi è stata inventata la penna e poi la macchina da scrivere Optimus. E internet è da qualche parte nella stessa fila. Ed è più che altro una via di mezzo tra una TV, un pub e un supermercato con un happishopper interattivo. Una nuova pagina di psichiatria, anche. Comunicare con il proprio subconscio come partner psicochimico".

Yuqoridagi misolda Gazia ismli foydalanuvchi tarmoqdagi foydalanuvchilarning qaysi janrda yozishidan qatʼiy nazar, barini oʻzi hal qilishi kerakligi masalasini koʻtargan. Foydalanuvchi "matn muallifining til normalarini buzishi mumkin emas", degan fikrga qoʻshiluvchilarning fikriga qoʻshilmaydi. Italyan tilida mavjud soʻzlar (caféʼ, taverna, centro ricreativo, manipolata) oʻrniga ingliz soʻzlarining ishlatilishi (pub, happishopper, psicochimico) kulgili effektni hosil qiladi.

Virtual konferensiyani karnaval sifatida his etish quyidagi misolda yaxshi koʻrsatilgan: Andrea Gigi: Signor Passeggero! Non ho niente a che fare con la frase "Fornire ai citta'dini bi'scotti, porte' e polli'. che non ha senso e non ha senso, sia nel suo significato che negli accenti che hai posto. Tranne che per la parola "fornire", naturalmente. E tra l'altro, non "citta'dini", non "bi'scotti", non "porte'" e non "polli'", ma "citta-di'ni", "bisco'tti", "po'rte" e "po'lli". Queste sono le regole e le eccezioni per ora. Non si può scrivere niente! Muallif soʻzlardagi urgʻularni notoʻgʻri qoʻyilganligini kesatmoqda, soʻzlarga qoʻyilga tutuq belgisi esa matnga yumor olib kelayapti.

Virtual muloqotda dialoglilig oʻzining oʻziga xosliklariga ega. Internet muloqot konferensiya foydalanuvchilari oʻrtasida jonli muloqot, janjal, oʻz fikrida qolish kabilarni oʻzida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham suhbatdoshga yoʻnalganlik, haqiqiy yoki soxta boʻlishidan qatʼiy nazar, asosiy shartlardan biridir. Inson fikrlarini bayon qilgisi, oʻzi haqida bong urishi, tushunarli boʻlishi va oʻziga hamsuhbatlar, hamfikrlar topishi internet orqali muloqot qilishga undovchi asosiy omillardir. Voqelikda boʻlganligi kabi, virtual dunyoda ham inson oʻziga uning fikrlariga sherik boʻluvchi, fikrlarini maʼqullovchi yoki shunchaki uni eshituvchi doʻst yoki hamsuhbat topishga intiladi. Virtual konferensiya qatnashchilarga yosh, professional, jinsiy va boshqa cheklashlarni unutishga imkon beradi. Virtual kommunikantlar oʻrtasida masofa yoʻqoladi, har kim virtuallikda istalgan kishiga oʻz bilganidek murojaat etishi mumkin. *Francesco Vitale: "Questo è il governo Attuale...Non hanno fatto nulla da l'ultima pandemia ...Pur sapendo che ci sarebbe stata la seconda..Mancano medici, bombole, posti letto..Manca tutto ciò che non dovrebbe... È vergognoso...Hanno sprecato milioni di €. X tante cazzate!!!". – Davide Rizzoli: "Francesco Vitale Hanno tagliato miliardi di Euro alla sanità pubblica!! Che vergogna! Ah no i tagli li ha fatti la destra al governo e nelle regioni leghiste! Siamo tutti esperti".* Kommunikantning nutqi haqoratli, nizoli, kinoyali, istehzoli, maʼnoli, bagʻrikeng boʻlishi mumkin, biroq u hech qachon nazardan chetda qolmaydi.

Har bir foydalanuvchi virtual muloqotda muallifga aylanadi. "Spektakl"ning asosiy funksiyalaridan biri hodisa haqida gapirish emas, uni koʻrsata olish hamdir. "Spektakl" foydalanuvchilar tomonidan yaratiladi va ular, oʻz navbatida, ushbu sahnada ham rejissor, ham aktyor boʻlishi mumkin. *Sergio: – "Qui siamo tutti identità virtuali, e ognuno determina il grado della propria virtualità – nome o nickname, IP reale o proxy, oppure cambia i nickname con proxy per la sua virtualità. Un certo Angelo puo' anche essere una nonna di 60 anni e persino di origine ebraica".*

Munozara davomida suhbatdoshlar oʻzaro haqiqiy insonlar sifatida emas, balki oʻylab topilgan qahramonlar sifatida muloqot qilishadi. Nutqiy jarayon ham tanlangan qahramon obraziga mos boʻladi. *Isotomus: "Questa però me la spiegate. –*  *Oggi ho inserito due richieste di determinazione. 1 – Odontocarus asiaticus alle ore 16,20 e 2 – Lebia trimaculata alle 17,10. Una terza (Cicindela sp. herbacea group) è stata inserita fra quelle in attesa di pubblicazione (domani ore 18,43) Forse perché Marcello ha inserito il limitatore nel pomeriggio? Non sarà il caso di regolare gli orologi*  *". – Velvet Ant: "Ciao Gianfranco:) Il limitatore l'ho inserito già ieri pomeriggio. La sua funzione è quella di limitare soltanto i nuovi messaggi di determinazione aggiunti ogni giorno da ciascuno di noi ed in questo momento è impostato su un solo messaggio al giorno per permetterci di smaltire l'arretrato. Possiamo invece rispondere quante volte vogliamo ai messaggi inseriti da altri utenti. Così tu, oggi pomeriggio, alle 16,20 hai semplicemente inserito un messaggio di risposta nella discussione su Odonthocarus asiaticus (discussione da te inserita il 22/07).*

Munozara qatnashchilari bir-birlarining qarshisida hech qanday imtiyozga ega emaslar, har kim o‘z obrazini o‘zi yaratadi va nutqiy fe’l-atvoriga ko‘ra virtual jamoa tomonidan qabul qilinadi. Kommunikatsiya vositalik xususiyatiga ega ekan (kompyuter orqali yozma tarzda amalga oshadi) va jonli muloqotga xos bo‘lgan paralingvistik vositalarga ega emas ekan (smayliklardan tashqari), suhbatdoshlar o‘zining verbal obrazini yaratishadi va har bir obraz o‘z ko‘rinishiga, mazmun-mohiyatiga ko‘ra yagonadir. Muloqot jarayonida o‘zini anglash, ko‘plab hayotiy savollarga javob qidirish kabilar vujudga keladi, falsafiy fikrlash va tafakur qilish kuchayadi.

1996-yil Judit Donat tomonidan ilmiy adabiyotga ilk bor “trolling” tushunchasi kiritildi. U trollingni zararli yolg‘on deb ta’riflab, trollar virtual muhitda begonalarga nisbatan ishonch va bag‘rikenglikning tez pasayishiga va onlayn hamjamiyatda paranoyaning rivojlanishiga hissa qo‘shishini ta'kidladi [2]. Trolling virtual konferensiyalarda, ijtimoiy tarmoqlardagi munozaralarda odamlarni yolg‘on ma’lumotga ishontirish, ular orasida agressiya holatini yuzaga chiqarish, auditoriyani fikrini o‘zgartirish, ularni chalg‘itish va boshqa maqsadlarni ko‘zlaydi. Trollingni oddiy so‘z bilan “buzg‘unchilik” deb atash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Virtual muhit hozirda voqelikning tarkibiy qismiga aylanib bo‘ldi, o‘z navbatida, u insonga real hayotda imkonsiz bo‘lgan ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etishga qodir makonga aylandi. Bundan kelib chiqadiki, virtual muhit hozirda karnaval formalar bilan to‘lgan, chunki ham karnavallik, ham virtual reallik bu “oddiy” voqelikni to‘ldiruvchi o‘ziga xos “materiya”dir. Aynan shu “materiya” insonga ijtimoiy voqelikda qilishi mumkin bo‘lmagan narsalarni amalga oshirishga imkon beradi. Virtual muloqotda karnavalizatsiya foydalanuvchilar tomonidan shakllantiriladi va u virtual kommunikantning nutqida, nutqiy xulqida namoyon bo‘ladi. Hozirgi vaqtda kompyuter atamalaridan biri bo‘lgan “trolling” o‘z navbatida karnavalizatsiyaning bir ko‘rinishi deb hisoblaymiz. V.V.Ximikning fikriga ko‘ra, trolling bu “Internetdagi surbetlik, troll esa Internetdagi surbetdir” [3].

Shunday qilib, til karnavalizatsiyasi va internet tafakkuri virtual nutqning stilistik xususiyati bo‘lib, muloqotning o‘ziga xos o‘ynoqi improvizatsion xarakterini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Бахтин М.М. Проблемы творчества Достоевского. Проблемы поэтики Достоевского. 5-е изд., доп. Киев, “NEXT”, 1994, 508 – 508 с.

(2). Whitney Phillips. This is why we can't have nice things. Mapping the relationship between online trolling and mainstream culture. Cambridge. MIT Press, 2015. ISBN 9780262529877; 256 p.

(3). Химик В.В. Хам и хамство в русском речевом пространстве. Антропология языка. The Anthropology of Language: сборник статей. Выпуск 2. Отв. ред. С.Р.Омельченко. М., “Наука”, 2012, с. 97–105. 200 с. ISBN 978-5-9765-1442-3, ISBN 978-5-02-037787-5.

To‘rayeva Maftuna Akbar qizi (Samarqand davlat Chet tillar instituti 2-bosqich tayanch doktoranti; maftunaturayeva18@gmail.com)

FRANSUZ TILSHUNOSLIGIDA NEOLOGIZMLARNI TASNIFLASH TIPOLOGIYASI MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolamizda fransuz lingvistikasi sohasiga juda katta hissa qo‘shgan ikki lingvist olimlarning, ya’ni, Jean-François Sablayrolles hamda Jean Tournier larning tilshunoslikning yangi bo‘limi Neologiyada qilingan izlanishlarini o‘rganishga va ularning izlanishlari asosida ular yaratgan neologizmlar tipologiyasini nimalardan iborat va ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini tasniflashga harakat qildik. Tadqiqot asosi etib quyidagi tilshunos olimlarning izlanishlari: fransuz professori J.F.Sablayrolles, J.Pruvost, E.Benvenist, L.Guilbert, J.C.Boulanger; rus tilshunoslari N.N.Boldirev, L.Y.Kasyanova, o‘zbek tilshunosi D.B.Zokirova va boshqa turli yetuk tilshunoslar tadqiqotlariga murojaat etildi. Tadqiqot natijasida ushbu tipologiyalar tasnifi va tahlili qilinib, neologizmlarning kognitiv tahliliga asos qilib olish uchun mos tipologiyasi tanlab olindi.*

Kalit so‘zlar: *neologizmlar va neosemiyalar, postulat, klassifikatsiya, klassik trixotomiya, «Tipologiyalar tipologiyasi», parasintetik derivatsiya, kompozitsiya, sinaps, kontominatsiya va h.k.*

Тураева Мафтуна Акбаровна (докторант 2 курса государственного Института иностранных языков; maftunaturayeva18@gmail.com)

К ВОПРОСУ О ТИПОЛОГИИ КЛАССИФИКАЦИИ НЕОЛОГИЗМОВ ВО ФРАНЦУЗСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В этой статье мы изучаем исследования двух лингвистов – Жана-Франсуа Саблеролля и Жана Турнье, которые внесли значительный вклад в область французской лингвисти-*